

## EKOLOGIK SUG'URTALASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI, XALQARO TAJRIBA

**Sevinch Muhammadiyeva Nurbek qizi**

Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi  
[muhammadiyevasevinch051@gmail.com](mailto:muhammadiyevasevinch051@gmail.com)

### ANONTATSIYA

*Ushbu maqolada bugungi kunda dolzarb mavzuga aylanib ulgurgan ekologiya sohasiga aloqador bo'lgan bevosita u bilan chambarchas bog'liq hisoblangan ekologik sug'urtalash, uning asosiy jihatlari, turlari va xorij tajribasi va shunga bog'liq boshqa masalalar yuzasidan gap boradi. Shuningdek, ushbu sohada amalga oshirilayotgan xorij tajribasi, olimlarning fikrlari, sug'urtalash bo'yicha bir nechta qonunchilikka takliflar kiritiladi.*

**Kalit so'zlar:** Ekologik sug'urtalash, sug'urta, ekologik siyosat, qonunchilik, ifloslanish, tabiiy ofatlar, himoya, xorij tajribasi, Ukraina qonunchilik tizimi.

### ABSTRACT

*This article deals with ecological insurance, its main aspects, types, foreign experience, and other related issues, which are closely related to the field of ecology, which has become a topical issue today. Also, the foreign experience in this field, the opinions of scientists, several proposals for insurance legislation will be included.*

**Keywords:** Environmental insurance, insurance, environmental policy, legislation, pollution, natural disasters, protection, foreign experience, Ukrainian legal system.

### KIRISH

Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish iqtisodiy-huquqiy mexanizmining muhim tarkibiy qismlarida biri – bu ekologik sug'urta institutidir. Sug'urta – bozor infrastrukturasing muhim unsuri, iqtisodiy va ijtimoiy sohaning ajralmas qismi hisoblanadi. U bevosita tadbirkorlik faoliyati subyektlari va fuqarolarning manfaatlariga taalluqli bo'lib, turli noqulay omillar natijasida yetkazilgan zararni qoplash yo'li bilan ularning mulkiy huquqlari himoyasini ta'minlaydi.

Ekologik sug'urtanening tarixiga nazar solishdan oldin ushbu tushuncha ta'rifiga e'tibor qaratish lozim.

A.A.Daminov "ekologik sug'urta" tushunchasi masalasidagi tahlili asosida, ekologik sug'urtanening prinsiplari va mohiyatidan kelib chiqib, ekologik sug'urtaga quyidagicha ta'rif bergan: "Ekologik sug'urta – jismoniy va yuridik shaxslarning, davlatning mulkiy manfaatlarini yuz berishi tabiiy muhit, aholining hayoti va sog'lig'iga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan ekologik xavf-xatardan himoya qilish

borasida sug‘urtalovchi va sug‘urta qildiruvchi o‘rtasida kelib chiqadigan huquqiy munosabatlar majmuidir”.<sup>1</sup>

Sug‘urtalash turlicha bo‘lib, umumiy ma’noda bu sug‘urta — muayyan voqeа (hodisa) yuz berganda yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash, tovonlar va boshqa to‘lovlар to‘lash uchun maqsadli pul jamg‘armalarini tashkil etish hamda ulardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan, jismoniy va yuridik shaxslarning manfaatlarini himoya qilishga doir munosabatlar;<sup>2</sup> Ulardan biri sifatida Ekologik sug‘urtalash ekologiyada yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavfli omillarni bartaraf etish va ekologiyani himoya qilish uchun yaratilgan sug‘urta turi bo‘lib, bir qancha o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

### **Asosiy qism**

Sug‘urta to‘g‘risidagi munosabatlar O‘zbekiston Respublikasi Sug‘urta faoliyati tog‘risidagi qonun bilan tartibga solinadi. Ular jumlasiga barcha sug‘urta turlari va shakllari kiradi. Ushbu qonunga muvofiq sug‘urta quyidagi shakllarda olib boriladi. Sug‘urta ixtiyoriy va majburiy sug‘urta shakllarida amalga oshiriladi.

Ixtiyoriy sug‘urta ixtiyoriy sug‘urtani amalga oshirishning umumiy shartlari va tartibini belgilovchi sug‘urta shartnomasi hamda qoidalari asosida amalga oshiriladi.

Ixtiyoriy sug‘urta shartnomasida sug‘urta qoidalaring asosiy tushunchalarini aks ettiruvchi sug‘urtaning muhim shartlari ko‘rsatilishi kerak.

Majburiy sug‘urtani amalga oshirish shartlari va tartibi majburiy sug‘urtaning aniq turlari to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi qonunlari bilan belgilanadi.

Ekologik sug‘urtalashning o‘ziga xos asosiy maqsadlari mavjud. Atrof-muhitga ziyon yetkazuvchi hodisalardan, xususan, tabiiy ofatlar, favqulodda vaziyatlar natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavflarni qoplash hisoblanadi. Tabiiy ofat bu tabiiy ofat — ma’lum bir hududdagi yoki suv zonasidagi tabiiy favqulodda vaziyat manbai paydo bo‘lishi natijasida yuzaga keladigan, odamlarning qurban bo‘lishiga, sog‘lig‘i va atrof-muhitga zarar yetishiga, jiddiy moddiy yo‘qotishlarga va odamlar yashash sharoitlarining buzilishiga olib kelgan tabiiy xususiyatli favqulodda vaziyat.<sup>3</sup>

Favqulodda vaziyat — odamlar qurban bo‘lishiga, ularning sog‘lig‘i yoki atrof tabiiy muhitga zarar yetishiga, jiddiy moddiy talafotlar keltirib chiqarishga hamda odamlarning hayot faoliyati sharoitining izdan chiqishiga olib kelishi mumkin

<sup>1</sup> Daminov A.A. Ekologik sug‘urtani huquqiy ta’minlash muammolari: Diss... yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori. – Toshkent, 2022. 30-31 b.

<sup>2</sup> SUG‘URTA FAOLIYATI TO‘G‘RISIDA qonun (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 24.11.2021-y., 03/21/730/1089-son) <https://lex.uz/docs/-5739117>

<sup>3</sup> Tabiiy ofatlar oqibatida aholiga yetkazilgan zararni qoplash tartibi to‘g‘risida Nizom 26.02.2024-y., 09/24/100/0152-son) <https://lex.uz/docs/-5123931>

bo‘lgan yoki olib kelgan avariya, halokat, xavfli tabiiy hodisa, tabiiy yoki boshqa ofat natijasida muayyan hududda yuzaga kelgan holat.<sup>4</sup>

Sug’urtalashning quyidagi jihatlari mavjud:

Ifloslanish — tabiiy muhitga salbiy o‘zgarishlarni keltirib chiqaradigan ifloslantiruvchi moddalarning kiritilishidir. Ifloslanish har qanday modda (qattiq, suyuq yoki gaz) yoki energiya (radioaktivlik, issiqlik, tovush yoki yorug‘lik kabi) shaklida bo‘lishi mumkin. Atrof-muhitning ifloslanishiga tabiiy hodisalar sabab bo‘lishi mumkin bo‘lsa-da, ifloslanish so‘zi odatda ifloslantiruvchi moddalarning antropogen manbaga ega ekanligini anglatadi. Inson faoliyati bilan bog‘liq ifloslanishlar antropogen ifloslanish, deb ataladi.

Tabiiy ofatlar natijasida yuzaga keladigan zararlarni sug'urta polisi orqali qoplash moliyaviy yukni kamaytiradi va zararlangan tomonlarga tezkor yordam ko'rsatishga imkon beradi. Ekologik sug’urtalash tabiiy ofatlar, masalan, yer silkinishi, to'fon va suv toshqini natijasida zarar ko'rgan korxonalar yoki uy-joylar uchun moliyaviy yordam ko'rsatadi.

Xavf zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan har qanday vaziyatni anglatadi. Ishlab chiqarishda ishlatiladigan xom ashyo, mashinalar va ishlab chiqarish usullari xavf manbai hisoblanadi. Zarar, shikastlanish, kasallik yoki o'lim, shuningdek mulk, mashina va uskunalar yoki ular natijasida yo'qotishlar bo‘lishi mumkin. O'z navbatida, xavf - bu yuzaga keladigan xavf, uning zararli oqibatlari va yuzaga kelish ehtimolining kombinatsiyasi. Xavf juda ahamiyatsiz hodisadan tortib to falokat darajasiga qadar keng doirada aniqlanadi. Shuningdek, u turli yo'llar bilan guruhlangan.<sup>5</sup>

Ekologik sug'urta, korxonalarga o'z ijtimoiy mas'uliyatlarini bajarish, ya'ni atrof-muhitga zarar yetkazmaslik va jamiyatga foyda keltirish imkonini beradi.

Shuningdek, ekologik sug’urtalash tadbirkorlik faoliya tini ham o’z doirasida qo’llab-quvvatlaydi. Ekologik sug’urtalash ishlab chiqarish faoliyati bilan shig’ullanadigan ayrim turdag'i tadbirkorlik subyektlariga atrof-muhitga ishlab chiqarish orqali yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xatarlarni boshqarishga yordam berish orqali qo’shimcha xavfsizlikni ta’minlash, shuningdek tadbirkorlarga faoliyatlarida yuzaga kelgan yoki kelishi mumkin bo‘lgan ekologik xavflarni baholash va ular uchun samarli bo‘lgan yechimlarni taqdim qiladilar. Sug’urtalash tadbirkorlarga tabiat va atrof-muhitga ziyon keltirmaslik va tabiiy resurslardan oqilona foydaanish uchun strategiya dasturlarini ishlab chiqshlari uchun imkoniyatlarni taqdim etishadi. Ekologik mas’uliyatli bo‘lgan tadbirkorlik subyekti

<sup>4</sup> Tabiiy ofatlar oqibatida aholiga yetkazilgan zararni qoplash tartibi to‘g‘risida Nizom 26.02.2024-y., 09/24/100/0152-son) <https://lex.uz/docs/-5123931>

<sup>5</sup> <https://www.gozetim.com/uz/lojistik/kalite-saglik-guvenlik-ve-cevre-hizmetleri/risk-degerlendirmesi-ve-yonetimi/>

o'z ishlab chiqarish brendining reputatsiyasi oshishi va ko'plab ishonchli va doimiy bo'lgan mijozlarga ega bo'lishlari mumkin bo'ladi. Shu tariqa, ekologik sug'urta tadbirdorlik faoliyatini nafaqat moliyaviy, balki ekologik jihatdan ham qo'llab-quvvatlaydi, bu esa barqaror rivojlanishga hissa qo'shadi.

### **Xorij tajribasi:**

Ekologik sug'urtani amalga oshirish shakli haqidagi masala eng muhimlaridan biridir. Sug'urtaning eng yuqori samaradorligi sug'urta majburiy bo'lganda erishiladi. Buning sababi shundaki, sug'urtalovchi va sug'urta qildiruvchi bilan birgalikda munosabatlarning uchinchi shaxsi jabrlanuvchi bo'lib, uning maqsadi yetkazilgan zarar uchun qonuniy sug'urta tovonini olish va tegishli ekologik sug'urta shartnomalari mavjudligidir. Atrof-muhitning tasodifiy ifloslanishi xavfining potentsial manbalari bo'lgan barcha iqtisodiy ob'ektlarning kafolati bo'lishi mumkin. Bunga faqat majburiy sug'urta shakli bilan erishish mumkin.<sup>6</sup>

Xalqaro huquqda ekologik sug'urta munosabatlari "Chet el havo kemalarining yer yuzasida uchinchi shaxslarga yetkazgan zarari to'g'risida"gi Konvensiyada (Rim, 1952-yil 7-oktabr) nazarda tutilgan. Ushbu Konvensiya tabiiy muhitni zarar obyekti sifatida o'zida aks ettirmasa ham, Konvensiyaga ko'ra tabiiy muhitga yetkazilgan zarar fuqarolarga, yuridik shaxslarga, davlat yoki mahalliy hokimiyat organlariga tegishli bo'lgan umumiy mulk toifasi tomonidan o'zlashtiriladi. Ushbu Konvensiyaning 15-moddasiga muvofiq, Konvensiyani ratifikatsiya qilgan har qanday davlat havo kemasidan foydalanayotgan tashkilotdan o'z hududida yetkazilgan zarar uchun o'z javobgarligini sug'urta yoki boshqa ta'minot bilan qoplashni talab qilishi mumkin.<sup>7</sup>

L.Mukinaning fikricha, 1980-yildan 1990-yilgacha bo'lgan davr ekologik sug'urtaning rivojlanish tarixida o'tish davri hisoblanadi.<sup>8</sup> Shu vaqt ichida ko'plab mamlakatlarda umumiy javobgarlikni sug'urtalash va atrof-muhitni sug'urtalashni chegaralaydigan bir qator normalar paydo bo'lgan. Masalan, Germaniyada 1960-yilgi suv resurslari to'g'risidagi qonun (German Water Resources Act) ekologik javobgarlik va sug'urta masalalarini yetarli darajada qamrab olmagan, bu esa ekologik sug'urta shartnomalarini umumiy fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish shartnomalari tizimidan ajratishni qiyinlashtirgan.

Dunyo tajribasida atrof-muhitga antropogen faoliyat ta'siri natijasida iqtisodiyotga yetkazilgan zararni qoplashning asosan uchta usuli qo'llaniladi va bular – davlat byudjeti hisobidan, zarar yetkazgan shaxsning o'z mablag'lari hisobidan

<sup>6</sup> Kartashov Evgeny Grigoryevich (2017). Mechanisms for implementation of environmental taxes and insurance. Публічне урядування, (4 (9)), 115-123.

<sup>7</sup> <https://sciencebox.uz/index.php/sivosatshunoslik/article/download/8664/7925/8765>

<sup>8</sup> Мукина. Л. Экологическая ответственность в странах Европы // Страховое Ревю. Февраль. - 1999. - С. 9.

hamda sug‘urta biznesida mujassamlashtirilgan mablag‘lar hisobidan amalga oshiriladi. Yetkazilgan zararni qoplashning davlat tomonidan tartibga solib borish dastaklari sug‘urta bozoriga nisbatan bevosita va bilvosita ta’sir o‘tkazish imkoniyatlarini yaratib, iqtisodiyotning va ekologiyaning real holatini hisobga olgan holda ekologik sug‘urta sohasidagi munosabatlarni takomillashtirishga xizmat qiladi.<sup>9</sup>

Germaniya Federativ Respublikasida hozirgi kunda ekologik masalalarni (shu jumlada ekologik sug‘urta) tartibga soluvchi 800 ga yaqin qonun, 2770 ta nizom va ko‘rsatma hamda 4690 ta yo‘riqnomalar amal qilmoqda. Germaniya qonunchiligidagi ekologik sug‘urta atamasi qo‘llanilmaydi, balki uning o‘rniga “tashkilotlar tomonidan yetkaziladigan zararni sug‘urtalash” va “atrof tabiiy muhitga yetkazilgan zarar uchun javobgarlikni sug‘urtalash” tushunchalaridan foydalaniladi.<sup>10</sup>

Shuningdek, ekologik sug‘urtalash sohasida ko‘pgina xorij va o‘zbek olimlari tomonidan maqolalar mavjud. Ularda ekologik sug‘urtalash haqida shunday fikrlar keltirilgan.

Sug‘urtadan ekologik siyosatga rioya qilish vositasi sifatida foydalanish mumkinmi? Bu savolga javob berish akademik masalalarning keng mozaikasini, jumladan, kompensatsiya va oldini olishni ta‘minlash uchun mavjud tizimlarni, shartnomalardan (shu jumladan sug‘urta) huquqbazarlik to‘g‘risidagi qonun o‘rnini bosuvchi vosita sifatida foydalanishni, davlat organlari tomonidan tartibga soluvchi siyosatni ishlab chiqishdagi cheklowlarni, oldindan shartlarni o‘rganishni talab qiladi. Sug‘urta mahsulotlarini sotib olish yoki sotish uchun zarur bo‘lgan sug‘urta mahsulotlarini va bozor mexanizmlarini yaratish. Atrof-muhit xavfini sug‘urtalash orqali boshqarishning maqsadi sug‘urta va ishslash standartlari ekologik xavfni boshqarishda o‘ynashi mumkin bo‘lgan potentsial rolni ta‘kidlashdir. Sug‘urta bugungi kunda jamiyat oldida turgan eng muammoli muammolardan biri - atrof-muhit ta’sirini qanday qoplashni hal qilishda muhim rol o‘ynashi mumkin. Ekologik xavfni sug‘urta orqali boshqarish sug‘urtaning ekologik xavfni boshqarishda rol o‘ynash qobiliyatini tahlil qiladi. U tavakkalchilikni bartaraf etishning boshqa ijtimoiy vositalaridan farqli o‘laroq sug‘urtaning jamiyatdagi rolini tavsiflashdan boshlanadi: davlat imtiyozlari dasturlari va sud tizimidan foydalangan holda majburiy javobgarlikni yuklash. Shunday qilib, kitob sug‘urtaning qiyosiy afzalliklarini tasvirlaydi. Keyin kitob

<sup>9</sup> <https://sciencebox.uz/index.php/siyosatshunoslik/article/download/8664/7925/8765>

<sup>10</sup> Allgemeine Versicherungsbedingungen fur die Haftpflichtversicherung (AHB). Aachener und Munchener Versicherung AG. 1999. -6 s. / Общие страховые условия (предпосылки) для страхования от ответственности за причинение вреда. Страхование от ответственности за причинение вреда. Продукт Аахенского и Мюнхенского страхового акционерного общества. 1999. - 6 с; Argumentenkoffer" zur Umstellung auf die Umwelthaftpflichtversicherung.

xavflarning sug'urtalanishini tahlil qiladi. Va nihoyat, kitob sug'urtalash qobiliyatini tahlil qilishni uchta aniq ekologik misolga qo'llaydi.<sup>11</sup>

Shuningdek, yana bir boshqa maqolada esa ekologik javobgarlik ushbu o'n yillikning asosiy huquqiy muammolaridan biriga aylandi. U boshqa har qanday da'vogar kabi ko'p reklama, energiya, kapital va hissiyotlarni to'pladi va buning yaxshi sababi bor. 1980-yillarda ishlab chiqilgan "yangi" ekologik javobgarlik bilan bog'liq bo'lgan mulkiy zarar, shaxsiy jarohatlar va kasalliklar xavfi - 1980-yillarda ishlab chiqilgan umumiy qonunchilik va javobgarlikning qonuniy kengayishi jiddiy masaladir. Ushbu rivojlanayotgan huquqiy qoidalarning oqibatlari ham og'ir: ular o'rnatilgan investitsiyalarni, biznesni yuritishning uzoq vaqtidan beri davom etayotgan usullarini va qonuniy huquq va majburiyatlarga nisbatan oldindan mavjud bo'lgan umidlarni buzish va hatto qayta tartiblash bilan tahdid qilmoqda. Yangi ekologik javobgarlikning mas'uliyatni sug'urtalash bozoriga ta'siri va javobgarlik sug'urtasining ekologik javobgarlik rejimining maqsadlariga erishishdagi roli ko'p bahs-munozaralarga sabab bo'ldi. Ammo atrof-muhit uchun javobgarlik to'g'risidagi qonun va javobgarlik sug'urtasi o'rtasidagi to'g'ri munosabat haqidagi ommaviy munozaralarning aksariyati, afsuski, "yorug'lik"dan ko'ra ko'proq "issiqlik"ni keltirib chiqardi. Manfaatdor tomonlar, asosan, hozirgi qiyin vaziyat uchun javobgarlik to'g'risida ayblovlar bilan savdo qilishdi va kelajakning qarama-qarshi portretlarini chizishdi. Asosiy sabablarni ishonchli tahlil qilish va real siyosat variantlari ko'pincha etishmayotgan edi. Hozirgi vaqtda ekologik javobgarlikni sug'urtalash bilan bog'liq muammolarning ildizi 1985 va 1986-yillarda deyarli butun tijorat va kasbiy javobgarlikni sug'urtalash sohasini qamrab olgan inqirozga bog'liq. Ushbu inqirozning sabablari ko'p muhokama qilingan. Garchi bu bahs davom etayotgan bo'lsha-da.<sup>12</sup>

Yuqoridagi dasturlarga muqobil ravishda firmalarning ekologik sug'urtani sotib olish talabi prinsipial jihatdan kichik firmalar muammosini ham, monitoring muammosini ham hal qilishi mumkin. Agar kichik firma muammosi asosiy muammo bo'lsha, bunday sug'urta majburiy bo'lishi kerak. Agar yo'q bo'lsha, ko'pgina kichik firmalar, xavf-xatarni ixtiyoriy ravishda sotib olmaydilar. Sug'urta sotib olishni majburlash uchun agentlik oldingi jarimalardan foydalanishi yoki faoliyat yuritish huquqini bekor qilishi yoki boshqa yo'l bilan xarajatlarni qo'llashi mumkin. Ex ante jarimalari miqdori bo'yicha oldingi jarimalarga qaraganda kichikroq bo'lishi mumkin, chunki ekologik sug'urtaga ega bo'lishni nazorat qilish oson. Nazorat qiluvchi agentlik faqat kompaniya tasdiqlangan sug'urta polisini olganligini yoki umuman

<sup>11</sup> Freeman, P. K., & Kunreuther, H. (2012). *Managing environmental risk through insurance* (Vol. 9). Springer Science & Business Media.

<sup>12</sup> Abraham, K. S. (1988). Environmental liability and the limits of insurance. Colum. L. Rev., 88, 942.

olganda, kompaniya etarli moliyaviy resurslar ajratilganligi to'g'risida huquqiy hujjatlar taqdim etganligini tasdiqlashi kerak. Sug'urta nafaqat bankrotlik va monitoring muammolarini hal qiladi, balki boshqa imtiyozlarni ham beradi. Busiz, baxtsiz hodisalardan keyin katta ex post jarimalar kamdan-kam uchraydi. Sug'urta bilan xarajatlarni oldindan aytish mumkin va nisbatan kichik mukofotlarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, sug'urta jabrlanuvchilarga etkazilgan zararni qoplash uchun mablag'larni taqdim etadi. Sug'urta bo'lmasa, kichik firmalar bankrot bo'lganda, jarimalarning bir qismi to'lanmagan bo'lib, kompensatsiya uchun etarli mablag' qolmaydi. Eng muhimi, sug'urta riskni samarali kamaytirishga turki bo'lishi mumkin, chunki raqobatbardosh mukofotlar kutilayotgan umumiy ijtimoiy xarajatlarni samarali aks ettirishi kerak. Biz keyingi bo'limlarda bu nuqtaga qaytamiz.<sup>13</sup>

Sug'urta xavfni nazorat qilishning tobora muhim usuli hisoblanadi (Uwe va Christof, 2011) tabiiy dunyo va insoniyat sivilizatsiyasiga tahdid sifatida qaraladigan iqlim o'zgarishini boshqarish uchun. Shu sababli, iqlim o'zgarishi tashabbuslari sug'urta qabul qilishni rag'batlantiradi (Yu va boshq. 2019) Yuridik javobgarlikka bog'liq bo'lgan iqlim o'zgarishidan sug'urta qoplamasini jiddiy to'siqlarga duch keladi. Sug'urta mas'uliyat va kompensatsiya uchun istiqbolli yondashuv sifatida paydo bo'ladi va iqlim siyosatini yaxshilash uchun muhim salohiyatga ega zamonaviy iqlim o'zgarishi yondashuvini ifodalaydi (Horton, 2018). Shuni ta'kidlash kerakki, iqlim o'zgarishi bilan bog'liq diversifikatsiya qilinmaydigan xavf kelajakdagagi investorlar uchun sug'urta shartnomalarini joriy etish va amalga oshirishni qiyinlashtiradi. Engle va boshqalar. (2020) o'z tadqiqotida barcha sug'urta shartnomalarining to'liq bajarilishini va bir vaqtning o'zida investorlarga tovon to'lashni talab qiluvchi mandat tabiiy ofat paytida haqiqatan ham qiyinlashishini ta'kidladilar. Bu yakka tartibdagagi investorlar o'zlarini atrof-muhit va iqlim xavflaridan himoya qilish uchun o'zini sug'urta qilishlari zarurligini ko'rsatadi.<sup>14</sup>

Ekologik sug'urtalash O'zbekiston qonunchiligi uchun yangi soha hisoblanib, biz qonunchiligidan quyidagi takliflarimizni kiritmoqchimiz.

**Eko-nazorat:** Sug'urtalash jarayonida ekologik nazorat mexanizmlarini kuchaytirish, shuningdek, korxonalarni ekologik standartlarga muvofiqligini tekshirish. Davlat organlari va xususiy sektorda faoliyat yurituvchi sug'urta kompaniyalari o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish, ekologik xavflarni baholash va ularga qarshi kurashishda birgalikda ishlash. Korxonalar uchun ekologik standartlar

<sup>13</sup> Yin, H., Pfaff, A., & Kunreuther, H. (2011). Can environmental insurance succeed where other strategies fail? The case of underground storage tanks. *Risk Analysis: An International Journal*, 31(1), 12-24.

<sup>14</sup> Nobanee, H., Dilshad, M.N., Abu Lamdi, O., Ballool, B., Al Dhaheri, S., AlMheiri, N., Alyammahi, A. and Alhemeiri, S.S. (2022), "Insurance for climate change and environmental risk: a bibliometric review", *International Journal of Climate Change Strategies and Management*, Vol. 14 No. 5, pp. 440-461. <https://doi.org/10.1108/IJCCSM-08-2021-0097>

va nazorat mexanizmlari bo'yicha treninglar o'tkazish, xodimlarning ekologik mas'uliyatini oshirish.

Xalqaro tajriba: Boshqa davlatlardagi muvaffaqiyatli ekologik sug'urtalash tizimlarini o'rganish va ularni mahalliy sharoitga moslashtirish. Xalqaro tajriba, ekologik sug'urtalash tizimlarini rivojlantirishda muhim manba bo'lishi mumkin. Yevropa Ittifoqi: Yevropa mamlakatlarda ekologik sug'urtalash tizimlari ko'plab muvaffaqiyatli tajribalar bilan tanilgan. Misol uchun, Germaniyada qishloq xo'jaligi sug'urtalari orqali ekinlarning ekologik xavflarini himoya qilish tizimi mavjud. Mahalliy sharoitda ham qishloq xo'jaligida sug'urtalashni kuchaytirish va ekologik xavflarga qarshi choralar ko'rish mumkin.

## XULOSA

Xulosa qiladigan bo'lsak, garchi ekologik sug'urtalash O'zbekistonga yangi kirib kelgan sohalardan biri bo'lishiga qaramasdan, O'zbekiston ekologiyasi va atrof-muhiti yordamga xususan, sug'urtalashga muhtoj mamlakatlardan biridir. Sug'urtalash yuqorida keltirib o'tilgandek bir qancha xorij tajribalarini keltirib o'tdik. Shuningdek, milliy qonunchiligidan ham takliflar berdik. Umid qilamizki, bizning takliflarimiz ekologik sug'urtalash qonunchilik tizimizda o'zining munosib o'rniga ega bo'ladi va mustahkam qonunlar orqali tartibga solinadi. Ekologik sug'urtani huquqiy tartibga solish uchun xorijning ilg'or tajribalarini milliy qonunchiligidan tatbiq qilish, qonunchilik hujjatlariga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Daminov A.A. Ekologik sug'urtani huquqiy ta'minlash muammolari: Diss... yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori. –Toshkent, 2022. 30-31 b.
2. SUG'URTA FAOLIYATI TO'G'RISIDA qonun (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 24.11.2021-y., 03/21/730/1089-son) <https://lex.uz/docs/-5739117>
3. Tabiiy ofatlar oqibatida aholiga yetkazilgan zararni qoplash tartibi to'g'risida Nizom 26.02.2024-y., 09/24/100/0152-son) <https://lex.uz/docs/-5123931>
4. <https://www.gozetim.com/uz/lojistik/kalite-saglik-guvenlik-ve-cevre-hizmetleri/risk-degerlendirmesi-ve-yonetimi/>
5. Kartashov Evgeny Grigoryevich (2017). Mechanisms for implementation of environmental taxes and insurance. Публічне урядування, (4 (9)), 115-123.
6. <https://sciencebox.uz/index.php/siyosatshunoslik/article/download/8664/7925/8765>
7. Мукина. Л. Экологическая ответственность в странах Европы // Страховое Ревю. Февраль. - 1999. - С. 9.

8. <https://sciencebox.uz/index.php/siyosatshunoslik/article/download/8664/7925/8765>
9. Allgemeine Versicherungsbedingungen für die Haftpflichtversicherung (AHB). Aachener und Munchener Versicherung AG. 1999. -6 s. / Общие страховые условия (предпосылки) для страхования от ответственности за причинение вреда. Страхование от ответственности за причинение вреда. Продукт Аахенского и Мюнхенского страхового акционерного общества. 1999. - 6 с; Argumentenkoffer" zur Umstellung auf die Umwelthaftpflichtversicherung.
10. Freeman, P. K., & Kunreuther, H. (2012). Managing environmental risk through insurance (Vol. 9). Springer Science & Business Media.
11. Abraham, K. S. (1988). Environmental liability and the limits of insurance. Colum. L. Rev., 88, 942.
12. Yin, H., Pfaff, A., & Kunreuther, H. (2011). Can environmental insurance succeed where other strategies fail? The case of underground storage tanks. Risk Analysis: An International Journal, 31(1), 12-24.
13. Nobanee, H., Dilshad, M.N., Abu Lamdi, O., Ballool, B., Al Dhaheri, S., AlMheiri, N., Alyammahi, A. and Alhemeiri, S.S. (2022), "Insurance for climate change and environmental risk: a bibliometric review", International Journal of Climate Change Strategies and Management, Vol. 14 No. 5, pp. 440-461.  
<https://doi.org/10.1108/IJCCSM-08-2021-0097>